

BUYUK SHAXSLAR IJTIMOIIY-FALSAFIY TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA

Xudoyberdiyev Rashid Zokir o'g'li,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

e-mail: xudoyberdiyevrashid077@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda buyuk shaxslarning ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar obyekti sifatidagi nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda buyuk shaxs fenomeniga oid klassik va zamonaviy ilmiy yondashuvlar, uning jamiyat taraqqiyoti, tarixiy jarayonlar hamda ijtimoiy ong rivojiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, buyuk shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shaxsning tarix yaratishdagi o'rni hamda ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalardagi talqinlari qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari buyuk shaxslar fenomenini fanlararo yondashuv asosida o'rganishning ilmiy ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: buyuk shaxs, shaxs fenomeni, ijtimoiy-falsafiy tadqiqot, buyuk shaxs nazariyasi, tarixiy taraqqiyot, jamiyat, ijtimoiy ong, falsafiy konsepsiya, sotsiologik yondashuv, tarix falsafasi, fanlararo tadqiqot, ma'naviy taraqqiyot.

Abstract. This thesis examines great personalities as an object of socio-philosophical research by analyzing their theoretical and methodological foundations. It explores classical and contemporary scientific approaches to the phenomenon of great personalities, emphasizing their influence on social

development, historical processes, and the evolution of social consciousness. The study also investigates the interrelationship between great personalities and society, their role in shaping history, and their interpretation within various socio-philosophical concepts through a comparative analysis. The findings substantiate the scientific importance of studying the phenomenon of great personalities from an interdisciplinary perspective.

Keywords: great personality, personality phenomenon, socio-philosophical research, Great Person Theory, historical development, society, social consciousness, philosophical concept, sociological approach, philosophy of history, interdisciplinary research, spiritual development.

Аннотация. В данной работе великие личности рассматриваются как объект социально-философских исследований. Анализируются теоретические и методологические основы изучения феномена великих личностей, а также классические и современные научные подходы к данной проблеме. Особое внимание уделяется влиянию великих личностей на общественное развитие, исторические процессы и формирование общественного сознания. Кроме того, на основе сравнительного анализа раскрываются взаимосвязь личности и общества, роль выдающихся личностей в истории, а также их интерпретация в различных социально-философских концепциях. Результаты исследования обосновывают научную значимость междисциплинарного изучения феномена великих личностей.

Ключевые слова: великая личность, феномен личности, социально-философское исследование, теория великой личности, историческое

развитие, общество, общественное сознание, философская концепция, социологический подход, философия истории, междисциплинарное исследование, духовное развитие.

Ijtimoiy taraqqiyotni, ma'rifiy va tarixiy-madaniy voqealarni buyuk shaxslarsiz, ularning mardona kurashi va dadil izlanishlarisiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham shotland faylasufi Tomas Karleyl tarixiy-madaniy taraqqiyot, kishilik jamiyati rivoji «mohiyatan buyuk kishilar tarixidir»¹, deb yozadi. Tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyotga nazar tashlagan zahoti ko'z oldimizga insoniyatga, sivilizatsiyaga katta hissa qo'shgan shaxslar, ularning qoldirgan ma'naviy merosi, asarlari va yaratgan moddiy boyliklari keladi. Har bir davr o'zining buyuk shaxslarini tarix sahnasiga olib chiqqanini, ularning betakror va jasoratli mehnatlarini avlodlardan avlodlarga yetkazib, targ'ib etib kelayotganini kuzatamiz.

Buyuk shaxslarning tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyotdagi o'rnini tadqiqotchilar Gerodotdan boshlanishini e'tirof etadilar. Ularning fikricha, «tarix fanining otasi» hisoblanadigan Gerodot «asarlari markaziga insonni qo'ydi, uning ilm-fan, tarix oldidagi xizmatlari shundadir»².

To'g'ri, Gerodot qahramonlarini jang maydonlaridagi xatti-harakatlari, faoliyati va amallari bilan bog'laydi, ularning jasoratli da'vatlarini ulug'laydi. U

¹ Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – Москва: ЭКСМО, 2008. – С. 7.

² Стратановский Г.А. Фукидид и его «История» // Фукидид. История в девяти томах. Том 1. – Москва: Наука, 1981. – С. 409.

hatto qahramonlarini ilohiylashtirishgacha boradi, qadimgi yunon va rim xudolari bilan qiyoslaydi, ularga tenglashtiradi. Akademik A.F.Losevning iborasi bo'yicha «mifologik davr» o'zining buyuk shaxslarini, qahramonlarini «miflashtirmasligi mumkin emas edi»³. Qahramonlarini «miflashtirish», ya'ni afsonaviylashtirish faqat Gerodotga xos emas, keyingi tarixchilar, ayniqsa Plutarx, mazkur yondashuvni ommaviylashtirdi, o'z asarlarida keng qo'lladi. Uning Aleksandr Makedonskiy va Yuliy Sezar, Agesilay va Pompey, Demosfen va Sitseron kabi buyuk tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati va amallari haqidagi fikrlari, qanchalik real, tarixiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmasin, afsonaviy tafsilotlarga yaqindir⁴.

Hatto falsafa tarixini o'rgangan tadqiqotchilar Platon ilgari surgan va tayangan «haqiqat, go'zallik va ezgulik» o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ilk bor Parmenid ilgari surgan, bu bilan u falsafada «g'oyalar nazariyasi»ni boshlab berib, nafaqat Platonga, butun keyingi davrga ta'sir etdi, deb ko'rsatishadi⁵. Demak, faqat amallar, faoliyat emas, balki g'oyaviy qarashlar, nazarlar ham buyuk voqelik sifatida keladi, aslida falsafa tarixi ana shunday buyuk g'oyalar tarixidir.

Shu bilan birga, falsafaga tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati va g'oyaviy qarashlarini olib kirgan Diogen Laersiy bo'lganini aytib o'tish zarur. Uning «Mashhur faylasuflarning hayoti, ta'limotlari va fikrlari haqida» asari tadqiqotchilar uchun bebaho manba bo'lib qolmoqda. Unda «turli va yorqin

³ Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – Москва: Республика, 1994. – С. 7–8.

⁴ Плутарх. Сочинения. – Москва: Художественная литература, 1983.

⁵ Коэн М. Взламывая философию. – Москва: АСТ, 2019. – С. 7.

shaxslar»ning hayotiga, amallari va qarashlariga oid qiziqarli, quruq akademizmdan yiroq, jonli, turfa xil tafsilotlar beriladiki, ular falsafani zavqli qilib ko'rsatadi⁶. Diogen Laersiy o'zigacha bo'lgan faylasuflar, u yoki bu muammo bo'yicha fikr bildirgan shaxslar haqida ma'lumotlar beradi, ulardagi ibratli jihatlar, fazilatlarni keltiradi. Falsafiy-etik ahamiyatga ega bu ma'lumotlar u yoki bu qarashlarga hamon asos bo'lib kelmoqda.

Stoitsizmning yirik vakillari Zenon, Seneka, Epiktet, Mark Avreliy asarlarida ham e'tiborli qarashlarga ega faylasuflardan namunalar, fikrlar, ularning asarlaridan iqtiboslar keltiriladi. Masalan, Seneka asarlarida Epikur, Gesiod, Gomer, Gekaton, Xrisipp, Suqrot, Aleksandr Makedonskiy, Tiberiy, Kaligula, Yuliy Sezar, Brut, Kserks, Klavdiy kabilarni, Epiktet asarlarida Diogen, Epikur, Suqrot, Aristid, Epaminond, Likurg, Arximed, Pittak kabi tarixiy shaxslarni, Mark Avreliy esa Epiktet, Suqrot, Geraklit, Diogen, Aleksandr Platonik, Katon, Dion, Feofrast, Pompey, Gay Sezar kabi ko'plab shaxslarning fikrlarini, amallarini, jamiyatga oid qarashlarini keltiradi⁷.

Buyuk shaxslarning hayoti va faoliyatini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etgan, falsafaga tarixiy shaxslarni tadqiqot ob'ektlari qilib olib kirgan shotland faylasufi Tomas Karleyl (1795–1881)dir. U Iso payg'ambar, Muhammad payg'ambar, Lyuter, Dante Aligyeri, Gyote, Shekspir, Volter, graf Kaliostro kabi tarixiy shaxslar hayoti va amallarini o'rganib, ular insoniyat va ma'rifat tarixida katta,

⁶ Лаэций Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. – Москва: Мысль, 1979. – С. 5.

⁷ Римские стоики. Сенека, Эпиктет, Марк Аврелий. – Москва: Республика, 1995.

betakror iz qoldirganini, ularning sa'y-harakatlari tufayli jamiyat rivoji boshqacha bo'lganini, insonga bo'lgan ishonch ortganini ochib beradi. Tarix va shaxs muammosi falsafada azaliy mavzulardan biri bo'lib keladi, biroq T.Karleyl ushbu mavzuga falsafiy-aksiologik mohiyat baxsh etadi. Uning yozishicha, buyuk tarixiy shaxslar o'zining shaxsiy maqsadlari va da'volarini yashirishmagan, ammo ushbu niyatlarini ular qavmi, etnosi yoki xalqi intilishlari bilan uzviylashtirgan, ushbu dialektik bog'liqlikdan esa tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyotning, avvalgi jarayonlardan farq qiluvchi yangi bosqichi boshlangan. Kishilar ularning atrofida birlashgan, natijada yangi qoidalar, qadriyatlar, diniy aqidalar shakllangan⁸.

Buyuk shaxslarning tarixiy-madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy rolini falsafiy tahlil qilgan yirik faylasuflardan biri G.V.Plexanov (1856–1918)dir. Uning «Tarixda shaxsning roli masalasiga doir» va «Tarixga monistik qarashning shakllanishi masalasiga doir» asarlari bevosita bizning mavzumizga taalluqlidir. Ularda G.V.Plexanov K.Marks, F.Engels, B.Kroche, Golbax, G.Rikkert, Gegel, Labriola, Dietsgen, A.Bergson, V.Vindelband, P.Chaadayev, N.G.Chernishevskiy, A.I.Gersen, V.G.Belinskiy, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy kabi ijodkorlarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga, jamiyat ma'naviyatiga ta'siri ochib beriladi. Faylasuf ta'kidiga ko'ra, inson ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy makonda, iqtisodiy munosabatlar shakllangan jamiyatda dunyoga keladi va ushbu muhit uni tarixiy sub'ektga, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar egasiga aylantiradi. Tarixiy

⁸ Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – Москва: ЭКСМО, 2008. – С. 138–146.

shaxslar ushbu munosabatlar va makon ta'sirida shakllanib, ularni o'z faoliyatida ifoda etadi. Shaxs tarixiy makon mahsulidir⁹.

Xulosa qilib aytganda, buyuk shaxslar fenomeni ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida buyuk shaxslar nafaqat muayyan davr voqealarining faol ishtirokchisi, balki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy konsepsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, buyuk shaxsning shakllanishi uning individual salohiyati, ijtimoiy muhit, tarixiy sharoit va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi natijasidir.

Shuningdek, buyuk shaxs fenomenini fanlararo yondashuv asosida o'rganish ushbu masalani yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Falsafa, sotsiologiya, psixologiya va tarix fanlarining nazariy yondashuvlari buyuk shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Shu bois, buyuk shaxslar fenomenini ilmiy asosda tadqiq etish zamonaviy jamiyatda ma'naviy yetuk, tashabbuskor va mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalash hamda tarixiy merosni xolis baholashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. — Москва: ЭКСМО, 2008. — С. 7.

⁹ Плеханов Г.В. Избранные философские произведения. Том II. — Москва: Госиздат политической литературы, 1956. — С. 300–330.

2. Стратановский Г.А. Фукидид и его «История» // Фукидид. История в девяти томах. Том 1. – Москва: Наука, 1981. – С. 409.
3. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – Москва: Республика, 1994. – С. 7–8.
4. Плутарх. Сочинения. – Москва: Художественная литература, 1983.
5. Коэн М. Взламывая философию. – Москва: АСТ, 2019. – С. 7.
6. Лаэций Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. – Москва: Мысль, 1979. – С. 5.
7. Римские стоики. Сенека, Эпиктет, Марк Аврелий. – Москва: Республика, 1995.
8. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – Москва: ЭКСМО, 2008. – С. 138–146.
9. Плеханов Г.В. Избранные философские произведения. Том II. – Москва: Госиздат политической литературы, 1956. – С. 300–330.